

**QASHQADARYO VILOYATI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA
TASHQI IQTISODIY ALOQLARNING O'RNI**

Nurmatov A.U.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Geografiya kafedrasи o'qituvchisi

E-mail: nurmatovasliddin6@gmail.com

Sattorov R. Ch.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

E-mail: ramazonsattorrov@gmail.com

Dusiyorova M.B.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

E-mail: arziyvbaris@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada viloyatning tashqi savdo aylanmasi hamda eksport va import ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Xalqaro miqyosda viloyatning o'rni, ishlab chiqarishni kengaytirish samaradorligini oshishi kabi omillar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, bozor iqtisodiyoti, eksport va import ko'rsatkichlari, mehnat taqsimoti, tashqi iqtisodiy aloqalar, aholi, iqtisodiy rivojlanish, qishloq xo'jaligi.

РОЛЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Нурматов А.У.

Шахрисабзский государственный педагогический институт

Преподаватель кафедры географии

E-mail: nurmatovasliddin6@gmail.com

Саторов Р. Ч.

Студентка Шахрисабзского государственного педагогического института

E-mail: ramazonsattorrov@gmail.com

Дусиёрова М.Б.

Студентка Шахрисабзского государственного педагогического института

E-mail: arziyvbaris@gmail.com

Аннотация: В статье анализируются внешнеторговый оборот и показатели экспорта и импорта региона. Выделены такие факторы, как роль региона на международном уровне, повышение эффективности расширения производства.

Ключевые слова: глобализация, рыночная экономика, показатели

экспорта и импорта, разделение труда, внешнеэкономические связи, население, экономическое развитие, сельское хозяйство.

THE ROLE OF FOREIGN ECONOMIC RELATIONS IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF KASHKADARYA REGION

Nurmatov A.U.

Shahrisabz State Pedagogical Institute

Teacher of the Department of Geography

E-mail: nurmatovasliddin6@gmail.com

Satorov R. Ch.

Student of Shahrisabz State Pedagogical Institute

E-mail: ramazonsattorrov@gmail.com

Dusiyorova M.B.

Student of Shahrisabz State Pedagogical Institute

E-mail: arziyvbaris@gmail.com

Abstract: The article analyzes the foreign trade turnover and export and import indicators of the region. Factors such as the role of the region at the international level, increasing the efficiency of production expansion are highlighted.

Key words: globalization, market economy, export and import indicators, division of labor, foreign economic relations, population, economic development, agriculture.

Bugungi globallashuv sharoitdagi bozor iqtisodiyotining asosiy maqsadi jahon xo'jaligi va uni harakatga keltiruvchi xalqaro mehnat taqsimotining hududiy tashkil etilishini har tomonlama o'rganishga qaratilgan. Hududlardagi iqtisodiy resurslarning notejis taqsimlanish holatlari hamda ularning salbiy ta'sirini kamaytirish, hududlararo iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirish, turli iqtisodiy subyektlarning o'zaro manfaatli faoliyatini yo'lga qo'yishda har bir mintaqa, davlatlar rivojlanishini "ichkari"dan yirik masshtabli o'lchamlar orqali o'rganish bugungi bozor iqtisodiyotining yana bir muhim masalalaridan hisoblanadi.[1] Qishloq tumanlarini barqaror rivojlantirishning ilmiy yondashuvlari va barqaror rivojlanishning mavjud konsepsiyalari global, davlat va mintaqaviy darajalarning strategik vazifalarini belgilaydi.[2]

Ma'lumki, jahon xo'jaligining sanoat va qishloq xo'jaligi hududlari o'zining ixtisoslashuvidan kelib chiqib, industrial yoki agrar mehnat sohasiga ixtisoslashadilar. Har bir hudud doirasida yana ichki ixtisoslashuv yuz beradi. Xalqar mehnat taqsimoti davlatlar va yirik iqtisodiy mintaqalar doirasida kechsa, ichki mehnat taqsimoti o'z navbatida, iqtisodiy rayonlararo, viloyatlararo, viloyat ichidagi va tumanlararo (mahalliy) mehnat taqsimotlari ko'rinishda amalga oshadi.

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholi soni 3618,3 ming kishi (01.10.2024-yil holati bo'yicha) bo'lib, shundan 1624,2 ming kishi shaharlarda va 1994,1 ming kishi qishloqlarda yashaydi. Viloyat tarkibidagi 14 ta qishloq tuman, 12 ta shahar, 117 ta shaharcha, 1042 ta qishloq aholi punktida tabiiy, demografik, ma'daniy-tarixiy xususiyatlarga bog'liq holda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hududiy farqqa ega. Jahan iqtisodiyotida hech bir davlat, viloyat, rayon tashqi iqtisodiy aloqalarsiz ko'zlangan iqtisodiy rivojlanishga erisha olmaydi. Ingliz klassik iqtisodchilari A. Smit va D. Rikardolar yaratgan hududiy mehnat taqsimoti ta'limotining mohiyati ham ana shunda [3].

Qashqadaryo viloyati mamalaktimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o'zining hududiy mehnat taqsimoti orqali 90 dan ortiq uzoq va yaqin davlatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqlar olib bormoqda. Viloyatning eksport tovarlari tarkibida oziq-ovqat 12,1 % (sabzavot, meva, bug'doy, meva sharbatlari, hayvon va o'simlik yog'i, tuz), Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar 0,2 %, marmar, Mashinalar va uskunalar, shu jumladan ehtiyyot qismlar va moslamalar 0,5 %, Energiya va neft mahsulotlari 38 %, granit, oxak, sement, asbestos, kiyimlar, tikuvchilik mahsulotlari 47 %, xizmatlar 0,9 % va boshqalar 1,3 %. Import tarkibida Oziq-ovqat mahsulotlari 10,5 %, Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar 1 %, Qora metallar va undan yasalgan buyumlar 2,3 %, Mashina va uskunalar, shu jumladan ehtiyyot qismlar va moslamalar 77,9 %, xizmatlar 4,4 % va boshqa tarmoqlar.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi umumiy qiymati 947462,6 ming AQSH dolloriga teng (01.09.2024-yil holati bo'yicha). Shundan, eksport 402132,6 ming AQSH dollar, import 545330,0 ming AQSH dollorni tashkil etgan holda, savdo balansi saldosi -151681,3 ming AQSH dollorga teng (1-jadval).

Qashqadaryo viloyatining tashqi savdo ko'rsatkichlari

(ming AQSH dollar hisobida)

1-jadval


Tashqi savdo aylanmasi	947462,6
eksport	402132,6
import	545330,0
Tashqi savdo balansi	-151681,3
Shu jumladan;	
MDH davlatlari bilan	
Tashqi savdo aylanmasi	121864,1
eksport	92337,3
import	29526,8

Tashqi savdo balansi	54326,7
Boshqa mamlakatlardan bilan	
Tashqi savdo aylanmasi	825598,6
eksport	309795,3
import	515803,3
Tashqi savdo balansi	-206008,0

Manba: Qashqadaryo viloyat Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlandi.

Tashqi savdo balansi faqat MDH mamlakatlari bilan amalga oshirilgan savdo aylanmasida musbat ko'rsatkichiga ega. 2010-2024-yillarda viloyat bo'yicha umumiyligi tashqi savdo aylanma 1,8 barobarga, eksport va import ko'rsatkichi esa tegishli tarzda 1,2 va 3,6 barobarga oshgani holda, raqamlardan ham ko'rish mumkunki tashqi savdo balansining manfiy ko'rsatkichiga ega ekanligini. Ushbu yillar davomida faqat 4 ta yil davomida musbat ko'rsatkich qayd etilgan xolos. (1-rasm).

1-rasm.



Manba: Qashqadaryo viloyat Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlandi.

Albatta bu raqamlar o'z o'zidan emas, chunki xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi, dinamik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar muhim rol o'ynaydi. Xuddi shu omillar va davlat siyosatlari barcha iqtisodiyot tarmoqlari singari tashqi savdoga ham o'z ta'siri o'zkazadi. Masalan, viloyat eksport tarkibida 2010-yilda paxta tolasining ulushi 64,9 % dan, bugun 0 % ga tushdi, paxta maydonlarining qisqartirilishi oziq-ovqat mahsulotlarining ko'p yetishtirilishi hisobiga oziq-ovqat sanoatining eksportdag'i ulushi 1,1 % dan 12,9 % ga oshdi. Import mahsulotlari tarkibida yetakchi o'rinni mashina va uskunalar, shu jumladan ehtiyyot qismlar va moslamalar 77,9 % bilan egallamoqda. Kimyoviy mahsulotlar va undan

tayyorlangan mahsulotlar ulushi esa oxirgi 10 yillikda pasaydi 12,5 % dan 10,5 % ga. Bu albatta Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining qurilishi va mahsulot ishlab chiqarishi bilan bog'liq o'zgarishdir.

Qashqadaryo viloyati tashqi savdo (eksport va import) bo'yicha yetakchi davlatlar birinchi 10 taligi

2-jadval

T/r	Hamkor davlat 01.09. 2024	Eksport (ming AQSH dollar hisobida)	Hamkor davlat 01.09. 2024	Import (ming AQSH dollar hisobida)
1	Amerika Qo'shma Shtatlari	107034,8166	XXR	224104,7
2	Rossiya Federatsiyasi	56616,52647	Turkiya	145239,0
3	Turkiya	56201,04416	Niderlandiya	36218,2
4	Birlashgan Arab Amirligi	30036,84129	Germaniya	34075,8
5	Pokiston	22436,539	Yaponiya	17790,2
6	XXR	17082,77627	Ekvador	16145,5
7	Qozog'iston	15348,72032	Rossiya Federatsiyasi	15823,0
8	Misr	13757,909	Pokiston	6968,7
9	Tojikiston	11728,2499	Qozog'iston	6250,6
10	Afg'oniston	11663,756	Hindiston	5158,3

Manba; <https://qashstat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

Qashqadaryo viloyati uchun eng yirik eksport qiluvchi davlat bu Amerika qo'shma shtatlari hisoblanadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, AQSH eksport bo'yicha birinchi o'rinda turadi. (107034,8 ming AQSH dollar), ikkinchi o'rinda—Rossiya Federatsiyasi (56616.5 ming AQSH dollar). AQSH bilan solishtirsak, AQSH Rossiyadan 1,8 barobar ko'p. Uchinchi o'rinda Turkiya (56201,0 ming AQSH dollar). AQSH Turkiyadan 1,9 barobar ko'p. Eksport bo'yicha Afg'oniston 10 ta yirik davlatdan oxirgi o'rinda turadi. Bu tahlil shuni ko'rsatyapdiki, AQSH Afg'onistondan 9,1 barobar oshgani ko'rsatilmoqda. Afg'oniston esa 10 ta eksport qiluvchi davlatlar ichida oxirgi o'rinda turibdi. Qashqadaryo viloyatiga mahsulot import qilish bo'yicha eng yirik davlat Xitoy hisoblanadi (224104.7 ming AQSH dollari). Turkiya import bo'yicha 2-o'rin, eksport bo'yicha esa 3-o'rinda turadi. Rossiya import bo'yicha 7-o'rinda turadi, ammo eksport bo'yicha 2-o'rin hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasi import hajmi 15823,0 ming AQSH

dollar, import bo'yicha oxirgi 10-davlat bu Hindiston hisoblanib, import hajmi 5158,3 ming AQSH dollari. Xitoy bilan solishtirsak, Xitoy import hajmi Hindistondan 43,4 barobar ortiqligi ko'rsatilmoqda. Qashqadaryo viloyatining AQSH bilan savdo balansida ortiqcha, Xitoy bilan esa tanqislik mavjudligini ko'rsatadi. Jadvalda eksport va import bo'yicha hamkor davlatlar, hamda ularning miqdori aks etgan. Qashqadaryo viloyatining ayrim davlatlar bilan savdo hajmi past, masalan, Pokiston va Afg'oniston bilan eksport va import ko'rsatkichlari boshqa davlatlarga qaraganda kamroq.

Adabiyotlar:

1. Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy xususiyatlari (Dehqonobod tumani misolida). "Zamonaviy geografik tadqiqotlarda integratsiya: muammolar va yechimlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2024-yil 11-12-oktyabr. B. 372-376
2. Қашқадарё вилояти ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг асосий хусусиятлари. Zamonaviy geografik tadqiqotlar: nazariya, amaliyat, innovatsiya xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Samarqand 2023-yil 12-13 May. B. 443-448
3. Soliyev A.S. "Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika, amaliyat". T-2013.
4. Nurmatov A.U. Qashqadrayo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy xususiyatlari. Zamonaviy geografik tadqiqotlar: nazariya, amaliyat, innovatsiya xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Samarqand 2023-yil 12-13 May. 443-448-betlar.
5. Main directions of social geographical research in the Republic of Uzbekistan. «Экономика и социум». Выпуск №3 (106) часть 2 (март, 2023). 220-226-betlar.

Internet ma'lumotlari

1. <https://qashstat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>